



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O'QISH  
FAN DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi:

120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi:

5120900 – O'zbek-ingliz tarjima nazariyasi  
va amaliyoti

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019 yil 17 08 dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

10 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 14 -  
dagi 892 -sonli buyrug'i bilan fan dasturlari ro'yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi

**Tuzuvchilar:**

- U. Hamdamov – Alisher Navoiy nomidagi TDO TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori  
R. Hakimjonova – Alisher Navoiy nomidagi TDO TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

- D. Yusupova – Alisher Navoiy nomidagi TDO TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
G. Ismoilov – O'zR FA Til, adabiyot va folklor instituti ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

Fanning o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil "1" 02 dagi "11" -sonli bayonnomasi).

*P. Ipponov*

*B. Zholkeev*

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish to'g'risidagi Respublika Prezidenti farmonida (2016-yil 13-may) "O'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash", bugungi filolog-mutaxassislarining muhim vazifasi. deya ta'kidlanadi. Hozirda nutq madaniyati, notiqlik va mutolaa san'ati doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, nutq madaniyati va notiqlik tarixining muhim bosqichlari borasida tasavvur hosil qilish, notiqlikning asosiy shartlari, nutq madaniyati asoslari, notiqlik yo'nalishlari va maktablari, voizlik san'ati, mumtoz manbalardagi nutq madaniyatiga oid qarashlar haqida ma'lumot berish, nutq sifatlari, uslublari, adabiy til me'yorlariga amal qilish, nutqni maqsadga muvofiq shakllantirish, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini talab darajasida egallagan o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" fani madaniy nutq tuzish, ifodali o'qishga o'rgatishni, mutolaa madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o'zlashtirishni, millat va mamlakat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma'naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish, og'zaki va yozma nutq me'yorlari bo'yicha muayyan ko'nikma hosil qilishni maqsad qiladi.

"Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" fani "Madaniyatshunoslik", "Yozma nutq me'yorlari", "Davlat tilida ish yuritish", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Mutaxassislikka kirish", "Darslikdan foydalanish metodikasi", "Adabiyot nazariyasi", "Mumtoz adabiyot tarixi", "Jahon adabiyoti", "Sotsiologiya", "Psixologiya" fanlari bilan aloqador.

Ushbu fanni o'qitish orqali o'zbek tili va adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti kontekstida tushunadigan, og'zaki va yozma nutqi ravon, barmoq va aruz vaznidagi she'rlarni, badiiy matnni ifodali o'qiy oladigan, nutq madaniyati va notiqlik san'ati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali pedagog kadrlar va ilmiy xodimlar tayyorlash ko'zda tutiladi.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

"Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" moduli maqsadi talabalar e'tiborini jalb qilish mohiyatiga ega bo'lgan nutq yaratish, me'yorilikka asoslangan og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilangan:

- nutq texnikasini o'rganish;
  - mutolaa madaniyati talablarini o'zlashtirish;
  - nutq madaniyati tarixini o'rganish, g'arb va sharqdagi notiqlik san'ati taraqqiyoti haqida ma'lumotga ega bo'lish;
  - notiqlik san'atining asosiy masalalarini o'zlashtirish;
  - nutq madaniyati asoslarini belgilash;
  - nutq sifatlari o'zlashtirish va shu asosda maqsadga mos tarzda ta'sirchan nutq yaratish;
  - muomala madaniyatini egallash, muloqot vaziyatlarini to'g'ri baholay olish.
- "Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:
- fan tarixi, notiqlik san'ati, notiqlar faoliyatini;
  - nutq bo'limlari, notiqlik san'atining asosiy tushunchalarini;
  - ifodali o'qish asoslarini;
  - nutq madaniyatining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini;
  - nutq sifatlari haqidagi muhim ma'lumotlarni;

-nutq madaniyatining shaxs ma'naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini *bilishi* zarur

- adabiy til me'yorlariga amal qilish;
- rasmiy muloqot madaniyati talablarini anglash;
- notiqlikning asosiy talablarini belgilash;
- nutq madaniyati talablariga amal qilish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi zarur,
- til va madaniyat munosabatlarini anglash;
- nutqni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda namoyon etish.
- nutqni ta'sirchan, auditoriya e'tiborini tortadigan darajada obrazli tarzda ifoda etish *malokalarini* egallashlari zarur.

### III. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlar)

#### 1. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

"Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda talabalar mumtoz hamda zamonaviy o'zbek adabiyotiga, shuningdek, jahon adabiyoti doir badiiy asarni tahlil va talqin qilishga, matnni ifodali o'qish, so'zlash, yod olishga, og'zaki va yozma nutq me'yorlarini o'zlashtirishga, nutqni aniq, to'g'ri, ravon ifodalay olishga yo'naltiriladi. Talabalar mutolaa, ritorika va nutq madaniyatiga oid egallangan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlaydilar. Matnlarni ifodali o'qish, muayyan mavzuda matn tuzish, nutq madaniyati talablariga amal qilgan holda so'zlash va yozish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

#### Amaliy mashg'ulotlar mavzulari quyidagilar:

- 1 Farididdin Attorning "Ilohiynoma" asaridan hikoyatlarni ifodali o'qish va muhokama qilish.
- 2 Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asaridan hikoyatlarni ifodali o'qish va tahlil qilish.
- 3 A.Navoiy g'azaliyoti bilan tanishish hamda "Lison ut tayr" asarini ifodali o'qish va muhokama qilish.
- 4 Z.M.Bobur ruboiylarini ifodali o'qish hamda "Boburnoma" asarini mutolaa va tahlil qilish.
- 5 Shekspirning "Hamlet" tragediyasidan Hamlet monologini ifodali o'qish.
- 6 Mashrab g'azallarini ifodali o'qish va yod olish.
- 7 Gyotening "Faust" tragediyasini rollarga bo'lib ifodali o'qish va muhokama qilish.
- 8 Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asaridan Tatyanning maktubini ifodali o'qish va tahlil qilish.
- 9 Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidan Anvar va Ra'no dialoglarini rollarga bo'lib ifodali o'qish.
- 10 Cho'lpon she'rlarini ifodali o'qish va yod olish hamda "Kecha va kunduz" romanidan Miryoqub va jadid Sharafuddin Xodjayev suhbatini rollarga bo'lib o'qish va tahlil qilish.
- 11 Fitratning "Munozara" (Hindistonda bir farangi ila buhoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi) asaridagi dialogni rollarga bo'lib ifodali o'qish.
- 12 Hamzaning "Maysaraning ishi" dramasini rollarga bo'lib o'qish.
- 13 Usmon Nosir va Hamid Olimjon she'rlarini ifodali o'qish va yod olish.
- 14 Oybekning "Bolalik" hamda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissalarini ifodali o'qish va qiyosiy muhokama qilish.
- 15 Abdulla Qahhor hikoyalari mutolaasi.

16. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni hamda Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asarini ifodali o‘qish va tahlil qilish
17. Yapon hukkulari va tankalarini ifodali o‘qish
18. Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf she‘rlarini ifodali o‘qish va yod olish.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar amaliy mashg‘ulotlar davomida egallagan ko‘nikmalarini matn ustida ishlash, ifodali o‘qish, nutq madaniyati talablariga muvofiq ravishda so‘zlash, taqdimot qilish asosida mustahkamlaydilar. Bunga jamoa tarzida, individual yondashish hamda mustaqil ishlash yo‘li bilan erishiladi. Mustaqil ishlashda darslik, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy qo‘llanma, tarqatma va ko‘rgazmali materiallar, internet ma‘lumotlarining ahamiyati kattadir.

#### **IV. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar**

“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutq madaniyati asoslari borasida ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta‘lim tizimiga asoslanib, fan o‘qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganib, internet saytlaridan foydalanib, referatlar va ilmiy ma‘ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashg‘ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlarni namoyish etadilar.

Mustaqil ishni tayyorlashda nutq madaniyatiga doir fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- \* darslik va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha fan mavzularini o‘rganish;
- \* tarqatma materiallar bo‘yicha ma‘ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- \* kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- \* maxsus adabiyotlar bo‘yicha referat va taqdimotlar tayyorlash;
- \* o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to‘plamlarni chuqur o‘rganish;
- \* interaktiv va muammoli o‘qitish jarayonida faol qatnashish.

#### **Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular**

1. Sofistlar, ularning notiqlik san‘ati rivojidagi xizmatlari.
2. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san‘ati masalalari talqini.
3. Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida so‘z, nutq madaniyati haqidagi fikrlar.
4. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida so‘zning ulug‘lanishi.
5. Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida sharqona muomala madaniyati.
6. Husayn Voiz Koshifiyning voizlik mahorati.
7. Navoiyning “Majolus un-nafois” asarida voizlar haqidagi ma‘lumotlar.
8. O‘zbek xalq maqollarida nutq odobining aks etishi.
9. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf – diniy notiqlik vakili sifatida.
10. Tursunoy Sodiqovanning nutqida sharqona odob masalalarining aks etishi.
11. Platon asarlarida notiqlikka oid qarashlarning aks etishi.
12. Plutarx, uning notiqlik san‘ati namoyandalari haqidagi ma‘lumotlari.
13. Suqrot, uning notiqlik san‘ati oldidagi xizmatlari.
14. Irshod notiqligi
15. Aristotelning notiqlik san‘ati ta‘limoti.
16. Demosfen - buyuk notiq.
17. Sitseronning notiqlik nazariyasi.

18. A Qahhor asarlarida nutq va notiqlik masalalari.
19. Hadislarda nutq odobi masalalari.
20. Ijtimoiy-siyosiy notiqlik.
21. Akademik notiqlik.
22. Sud notiqligi.
23. Diniy notiqlik.
24. Harbiy vatanparvarlik notiqligi.
25. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda voizlik san'ati rivoji.
26. Boburning nutq madaniyati to'g'risida qarashlari.
27. Muloqot madaniyati nutqiy etiketi.
28. O'zbekcha nutq odobi

**Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

## V. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar:

1. To'xliyev B. Ifodali o'qish. – Toshkent: "Bayoz", 2015
2. Enazarov T. Nutq madaniyati. -Toshkent, 2017.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 28-(6722) soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
3. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
4. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. -Toshkent: "Fikr-media", 2005.
5. Erkin Vohidov. So'z latofati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014.
6. Qilichev E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – "Buxoro", 2003.
7. Qosimov B. Milliy Uyg'onish davri adabiyoti. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2004.
8. Quronov D.va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. –Toshkent: "Fan", 2010.

### Интернет сайтлари:

1. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
5. [www.turonlib.uz](http://www.turonlib.uz)



